“TASDIQLAYMAN”
“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ Moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo‘yicha Boshqaruv raisi o‘rinbosari, Axloq komissiyasi raisi
_____ R. Radjapov
2026-yil 10-mart

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ da manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishning 1-son BAYONI

2026-yil 10-mart Toshkent sh.

Yig‘ilish raisi: Axloq komissiyasi raisi R. Radjapov.

Qatnashganlar: Axloq komissiyasi a‘zolari M.M.Mirzayev, S.A.Deriagin, Z.B.Ismailov, Y.N.Jurayev,A.A.Madjitov, D.A.Saidaxborov, M. Iminov, G.N.Jabborova.

KUN TARTIBI:

1. “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning 2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq bilan tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” talablari asosida xodimlar tomonidan to‘ldirilgan deklaratsiyalar natijalari to‘g‘risida.
2. To‘ldirilgan deklaratsiyalar asosida xodimlarda mafaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida Axloq komissiyasi xulosasi.

ESHITILDI:

Komissiya raisi R. Radjapov yig‘ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirib, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning 2023-yil 14-avgust kunidagi 103-son buyruq 1-ilovsi bilan Axloq komissiyasi a‘zolaridan 3/2 qismi qatnashayotganligi hamda majlisni davom ettirishga e‘tirozlar bo‘lmagani uchun **birinchi masala** bo‘yicha quyidagilarni ma‘lum qildi.

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJning 2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq bilan tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida AJning barcha xodimlar tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shakli (deklaratsiya) to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan.

Shu maqsadda, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ boshqaruv apparatining **187 ta** xodimidan **184 ta** (3 ta bola parvarish ta’tilda) xodim 2026-yil uchun manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shaklini (deklaratsiya) to‘ldirgan.

To‘ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda, **36 ta** boshqaruv apparati xodimning **55 ta** yaqin qarindoshlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ, uning tarkibiy

bo‘linmalarida, Tog‘-kon sanoati geologiya vazirligi tizim korxonalarida hamda **3 ta** xodimning **3 ta** yaqin qarindoshlari aksiyadorlik jamiyatini nazorat qilish (DavAktiv) tashkilotda ishlab kelmoqda.

Bundan tashqari, boshqaruv apparatining **1 ta** xodimi tadbirkorlik sub‘ekt Byuro: "YUMAND LAWERS" AB 2073311733)da rahbar lavozimlarida ishlaydi.

Aksiyadorlik jamiyati rahbari Sh. Alimov tomonidan yuqoridagi barcha holatlar Axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilishi va natijasi bo‘yicha takliflar berish to‘g‘risida joriy yilning 27-fevral kunidagi topshirig‘i mavjud.

Shundan so‘ng, kun tartibidagi **ikkinchi masala** yuzasidan “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ ning Axloq komissiyasi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq yuqoridagi barcha vaziyatlar ko‘rib chiqildi.

Natijada Axloq komissiyasi tomonidan “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ, uning tarkibiy bo‘linmalarida, Tog‘-kon sanoati geologiya vazirligi tizim korxonalarida ishlab kelayotgan **39 ta** xodimdan **28 tasida** manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi, **11 ta**sida esa **16 ta** ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi va haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligi to‘g‘risida xulosaga kelindi *(ilova qilinadi)*.

Shuni ta‘kidlash lozimki, yig‘ilish davomida Axloq komissiyasi a‘zolari tomonidan geologiya sohasi maxsus ixtisoslashuv, bilim va ko‘nikmalarni talab etishi, shuningdek oilada kasb davomiyligini qadrlash bilan bog‘liq an‘analar mavjudligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabrdagi 758-son qarori 3-ilova, 11-bandiga muvofiq geologiya sohasi ixtisosligidan kelib chiqib, ayrim hollarda qarindosh-urug‘larning bir-biriga xizmat qilishlarini cheklash qoidalaridan istisno etilishi mumkinligi ta‘kidlab o‘tildi.

Yig‘ilishda 2022-yil 28-oktabdagi 129-sonli buyrug‘ining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida Nizomi” talablariga muvofiq Komissiya a‘zolari bilan bog‘liq 1 ta holatda ular xulosa berish jarayonida ishtirok etishmadi. (Chuponv G‘)

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ boshqaruv apparatida korrupsiogen omillar oldini olish hamda unga chek qo‘yish maqsadida yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ xodimlarida manfaatlar to‘qnshuvi to‘g‘risida ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalari va boshqa tegishli davlat tashkilotlariga taqdim etishda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabrdagi 758-son qarori 3-ilova, 11 bandiga muvofiq geologiya sohasi maxsus ixtisoslashuvga egaligi inobatga olinsin.

2. “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ, uning tarkibiy bo‘linmalarida va Tog‘-kon sanoati geologiya vazirligi tizim korxonalarida **16 ta** yaqin qarindoshlari ishlab kelayotgan **11 ta** xodimlarda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari qayd etilganligi munosabati bilan ularga manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va ichki me‘yoriy hujjatlar talablari yetkazilsin va qat’iy ogohlantirilsin.

3. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (F. Umarov), va Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati (D. Saidaxborov) “O‘zbek geologiya

qidiruv" AJ boshqaruv apparatida aniqlangan 16 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati bo'yicha joriy yilning har choragida monitoring (ish haqlari, rag'batlantirishlar, qo'shimcha kelishuvlar, ishga kelish-ketishlar, lavozim o'zgarishlar) va nazorat chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin.

4. Tegishliligi bo'yicha boshqaruv raisi o'rinbosarlari, boshqarma va bo'linmalar rahbarlari (E.Ergashev, M. Mirzayev, B. Eshmurzayev, K. Xodjayev) ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlarining haqiqiy manfaatlar to'qnashuviga aylanishi oldini olish choralari ko'rilsin.

5. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati (D. Saidaxborov) tomonidan AJning manfaatlar to'qnashuvi holatlari reestriga boshqaruv apparatining 11 ta xodimida aniqlangan 16 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatini kiritish ta'minlansin.

6. Korrupsiyaga qarshi Ichki nazorat xizmati (D. Saidaxborov) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (F. Umarov) tomonidan mazkur yig'lish bayoni ijrosini ta'minlash to'g'risida buyruq loyihasi aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisiga kiritish ta'minlansin.

7. Mazkur yig'ilish bayonidagi topshiriqlar ijrosining nazoratini "O'zbek geologiya qidiruv" AJ ning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati (D. Saidaxborov) zimmasiga yuklansin.

Komissiya a'zolari:

M.M.Mirzayev

S.A.Deriagin

Z.B.Ismailov

Y.N.Jurayev

A.A.Madjitov

D.A.Saidaxborov

M. Iminov

G.N.Jabborova

Kotib: **F. Umarov**

"O‘zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv apparatida 2026-yil uchun manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi yillik deklaratsiyalash bo‘yicha tahlil natijalari

t/r	Lavozim nomi	FIO	Deklaratsiya to‘ldirilgan sana	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvining qisqacha mazmuni
1	Boshqaruv raisi maslahatchisi	Djabarov Rashid Azizovich	16.01.2026	Nevarasi: Tretyakov Gleb Danilovich-"O‘zbek geologiya qidiruv" AJ texnik-geolog 0,5 stavka
2	Ishlab chiqarish texnika bo‘limi Bosh mutaxassis	Kandaxorov Utkir Isokovich	12.01.2026	O‘g‘li: Isoqov Otabek O‘tkir o‘g‘li-Toshkent MGQE burg‘ilash uskunasi mashinisti yordamchisi
3	Ishlab chiqarish texnika bo‘limi Bosh mutaxassis	Ximmatov Forxod Najmiddinovich	12.01.2026	Akasi: Ximmatov Anvar Najmiddinovich-Toshkent MGQE burg‘ilash uskunasi mashinisti
4	Ishlab chiqarish texnika bo‘limi Bosh mutaxassis	Ximmatov Forxod Najmiddinovich	12.01.2026	Ukasi: Boliyev Shokir Najmiddinovich-Toshkent MGQE burg‘ilash uskunasi mashinisti.
5	Regional geologiya boshqarma boshlig‘i	Rizayev Maksud Muratovich	12.01.2026	Opasi: Rizayeva Svetlana Muratovna-Qizilqum MGQE Daugiztau DE, texnik-geolog
6	Rangli va qora metallar geologiyasi boshqarma boshlig‘i	Saidov Xabib Lutfillayevich	14.01.2026	Otasi: Saidov Lutfullo-Toshkent MGQE Olmaliq DE yetakchi geolog
7	Rangli va qora metallar geologiyasi boshqarma boshlig‘i	Saidov Xabib Lutfillayevich	14.01.2026	Turmush o‘rtog‘i: Nurmatova Aziza Abdiqahorovna-Toshkent MGQE Olmaliq DE geolog
8	Rangli va qora metallar geologiyasi boshqarma bosh mutaxassis	Botirov Dostonbek Ilxomjon o‘g‘li	12.01.2026	Akasi: Botirov Doniyor Ilxomjonovich-Toshkent MGQE yetakchi geolog
9	Laboratoriya va tahlil ishlari bo‘limi boshlig‘i	Raxmonov Ruslan Valijonovich	12.01.2026	Opasi: Roxmonova Firuza Valijonovna "O‘zbek geologiya qidiruv" AJ Boshqaruv apparati Qimmatbaho metallar geologiya boshqarmasi yetakchi mutaxassisi
10	Yetakchi mutaxassis (Murojatlar bilan ishlash)	Bobobekova Zulayxo Eltindiyevna	15.01.2026	Turmush o‘rtog‘i: Bobobekov Zoxidjon Anarbayevich-DavAktiv boshqarma boshlig‘i
11	Korporativ aloqalarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i	Rasulov Toxir Shermatovich	15.01.2026	O‘g‘li: Shermatov Bunyodjon Toxir o‘g‘li-O‘ZRes Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bosh mutaxassisi
12	Korporativ aloqalarni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassis	Karayev Parvoz Fahriddin o‘g‘li	13.01.2026	Akasi: Qarayev Feruz Faxriddin o‘g‘li-O‘zRes Davlat aktivlarini boshqarish agentligi mutaxassisi
13	Mehnat muxofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘limi bosh mutaxassis	Raxmonov Akbar O‘ngalovich	12.01.2026	Ukasi: Raxmanov Xusniddin O‘ngalovich-Qizilqum MGQE burg‘ilash qurilmasi mashinisti yordamchisi
14	Mehnat muxofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘limi bosh mutaxassis	Raxmonov Akbar O‘ngalovich	12.01.2026	Ukasi: Raxmonov Alisher ubgalovich-Samarqad MGQE portlatuvchi
15	Mehnat muxofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘limi bosh mutaxassis	Raxmonov Akbar O‘ngalovich	12.01.2026	O‘g‘li: Ungalov Azim Akbar o‘g‘li-Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, bosh mutaxassis
16	Mehnat muxofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘limi bosh mutaxassis	Raxmonov Akbar O‘ngalovich	12.01.2026	O‘g‘li: Ungalov Muhsiddin Akbar o‘g‘li- Hisor MGQE portlatuvchi

"O'zbek geologiya qidiruv" AJ
Axloq komissiyasining
2026-yil 10-martdagi
01-2026-sonli bayonnomasiga
2-ILOVA

"O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalarida aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlarini nazorat qilish yuzasidan chora-tadbirlar

REJASI

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati bo'yicha joriy yilning har choragida monitoring (ish haqlari, rag'batlantirishlar, qo'shimcha kelishuvlar, ishga kelish-ketishlar, lavozim o'zgarishlar).	10.04.2026-yil	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi, Iqtisodiyot va moliyaviy nazorat bo'limi.
2.	Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati bo'yicha joriy yilning har choragida monitoring (ish haqlari, rag'batlantirishlar, qo'shimcha kelishuvlar, ishga kelish-ketishlar, lavozim o'zgarishlar).	10.07.2026-yil	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi, Iqtisodiyot va moliyaviy nazorat bo'limi.
3.	Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati bo'yicha joriy yilning har choragida monitoring (ish haqlari, rag'batlantirishlar, qo'shimcha kelishuvlar, ishga kelish-ketishlar, lavozim o'zgarishlar).	10.10.2026-yil	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi, Iqtisodiyot va moliyaviy nazorat bo'limi.

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati bo'yicha joriy yilning har choragida monitoring (ish haqlari, rag'batlantirishlar, qo'shimcha kelishuvlar, ishga kelish-ketishlar, lavozim o'zgarishlar).	25.12.2026-yil	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi, Iqtisodiyot va moliyaviy nazorat bo'limi.